

ISSN 2181-6883

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON (2021-yil, MAY)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida geometrik obyektning koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari .....	109
Жаҳонгир БАТЫРОВ. Средневековые миниатюры в классической литературе востока .....	114
Шахноза ИБАДУЛЛАЕВА. Художественные способности в обучении изобразительному искусству.....	117
Nigora IBATOVA. Yangi pedagogik texnologiyalarni tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llash usullari ...	120
Boburmirzo KO'KIYEV. Yordamchi proyeksiyalash usulida pozitsion masalalarni yechishning metodik qulayligi .....	124
Азиза МУСИНОВА, Норжон ХАМРАЕВА. Декоративно-прикладное искусство в современном художественном пространстве.....	127
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga jalb etish .....	132
Гулнош ОСТОНОВА. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларида тасвирий санъат асарларининг идрок ва тасаввур қилинишини ривожлантириш муаммоси ва ўзбекистонлик олимлар томонидан ўрганилганлик ҳолати.....	135
Наргиза РАФИЕВА. Бошланғич синф тасвирий санъат дарсларида Камолиддин Бехзод меросининг аҳамияти.....	139
Sharofat SOBIROVA. Chizmachilik fanini o'qitishda talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga jalb qilishda konstruktiv loyihalash masalaridan foydalanishning metodik asoslari .....	142
Oybek SHOMURODOV. Tasviriy sa'nat darslarida manzara janri orqali o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	145
Avazjon SHUKUROV. Chizmachilikda loyihalash va ijodkorlik grafik tayyorgarlikning texnik ahamiyati	149
Феруза МАМУРОВА. Компетентли ёндашув таълим олувчининг касбий сифатларини шакллантириш.....	152
Шерали АВЕЗОВ. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчилари креатив компетентлигини шакллантириш муаммосининг назарий таҳлили.....	155

Oybek SHOMURODOV

Buxoro davlat universiteti  
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrası o'qituvchisi**TASVIRIY SA'NAT DARSLARIDA MANZARA JANRI ORQALI O'QUVCHILAR  
IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Maqolada tasviriy sa'nat asarlarining badiiy qimmatini tahlil qila bilish va talabalarda, o'qituvchilarda badiiy idrok qilish bilimini, shuningdek, mukammal xarakterga ega bo'lgan sa'nat asarlarini ajrata olish saviyasiga ega bo'lish uchun ta'lim mazmunini takomillashtirib borishni taqazo etishi haqida fikr yuritilgan. Har qanday sa'nat asari ijtimoiy fikr mahsuli bo'lib, u, asosan, o'zida insoniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shunday ekan Tasviriy sa'nat darslarida manzara janri orqali o'qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari o'rganildi.*

**Kalit so'zlar:** tasviriy sa'nat, bilim, o'qituvchi, sa'nat asari, ta'lim, manzara janri, qobiliyat, nazariy, ijod.

*Статья требует умения анализировать художественную ценность произведений изобразительного искусства и совершенствовать содержание образования, чтобы учащиеся и учителя обладали знаниями художественного восприятия, а также умением различать произведения искусства отличного характера. Любое произведение искусства является продуктом общественной мысли и в основном отражает человеческие ценности. Поэтому на уроках изобразительного искусства изучаются теоретические основы формирования творческих способностей учащихся средствами жанра пейзажа.*

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, знания, педагог, художественное произведение, образование, пейзажный жанр, умение, теория, творчество.

*The article requires the ability to analyze the artistic value of works of fine art and to improve the content of education for students, teachers to have the knowledge of artistic perception, as well as the ability to distinguish between works of art of excellent character. thought about. Any work of art is a product of social thought, which mainly reflects human values. Therefore, in the lessons of fine arts the theoretical bases of formation of creative abilities of pupils by means of a genre of a landscape are studied.*

**Key words:** fine arts, knowledge, teacher, work of art, education, landscape genre, ability, theory, creativity.

**Kirish.** Yurtimizning turli oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida yoshlarga milliy sa'nat namunalari o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazish borasida ko'plab amaliy tadbirlar o'tkazilmoqda.

**Asosiy qism.** Yosh avlodni badiiy jihatdan barkamol, vatanga va milliy sa'natga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy sa'nat, xususan, qalamtasvir va rangtasvir predmetining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida oliy o'quv yurti fakultetida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli o'rgatilishi taqazo etilib, pedagog va olimlar va davlat rahbarlari zimmasiga quyidagi katta vazifalarni belgilaydi:

- ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish; zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda internet tizimini yanada rivojlantirish;

- yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni, ayniqsa, qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini, stadionlar va inshootlarni qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil kuchaytirish;

- iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning muhim yo'nalishi aholi va o'rta sinf mulkdorlari daromadlarini shakllantirish asosi bo'lgan kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish,

bu sohada mavjud muammolarni hal etish, yoshlar, avvalambor, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, ayniqsa, qishloq joylarida tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun sharoit yaratish;

- ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishdagi doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ijodiy salohiyat, albatta, san'at bilan bog'liqdir. Inson sa'nat bilan juda qadim zamonlardan shug'ullana boshlagan. Sa'nat qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi. Insonning mehnat jarayonida, ov paytlarida idrok etgan dastlabki obrazlari inson qo'li, yovvoyi hayvonlar obrazi bo'lgan edi. Sa'nat inson ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismi va ehtiyojiga aylangach, u o'z asarlarida jamoa, jamiyat intilishlarini ifodalaydigan bo'ldi.

San'atning yuzaga kelishi insoning obyektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi.

Sa'nat hayotni bilishi, uni alohida vositalar yordamida aks ettirishi va jamoaga muayyan ta'sir ko'rsatishi natijasida ijtimoiy formalaridan biriga aylanadi, unga faqat borliqni o'zlashtiruvchigina emas, balki insonni yangi bilim va obrazli tasavvurlar bilan boyituvchi qudratli bir kuch deb qaraladi.

Tasviriy san'atning turlaridan biri rangtasvir. Rangtasvir bu haqiqatni anglash bo'libgina qolmay, inson hissiyatini shakllantiradi, sa'nat olamini ko'rishga o'rgatadi. Tasviriy sa'nat estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan biridir. Shuning uchun ham o'rta maktablarda o'quv rejai va dasturi bo'yicha tasviriy sa'nat asarlari to'g'risida suhbat dars mashg'ulotlari ko'zda tutilgan. Tasviriy sa'natning negzi qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyadan iborat. Tasviriy san'at kursi ikki qismdan: nazariy va amaliy mashg'ulotlardan iborat. Qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya haqidagi ma'ruzalar amaliy mashg'ulotlarni ongli bajarishda nazariy tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

Talabalarning nazariy va amaliy mashg'ulotlarda olgan bilimlari mustaqil mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. O'zbekiston tasviriy sa'nati tarixida yaratilgan asarlar va buyuk mutafakkirlar hayotidan, faoliyatidan andoza olgan holda o'lkamizning mahalliy sharoitiga mos va jahon andozasiga javob beruvchi rassom-pedagoglar tayyorlashdagi ta'lim mazmuni va muammolarini aniqlab, tahlil etish asosiy maqsad hisoblanadi.

Tasviriy sa'nat ta'limning mazmunida shu nazarda tutilganki, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni estetik jihatdan tarbiyalab, badiiy didlarini yuksaltirish, shakllantirishdan iboratdir. Kompozitsiya asoslarini o'rganishdan maqsad amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish, va mustaqil tasviriy san'at ustida ishlashni shakllantirishdan iboratdir.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari, uslubiy shartlari bo'lgan soya - yorug' rang yechimi hamda uning jozibadorligi chiziqlar, tus dog'larini ketma-ket takrorlanib uzviylik hosil qilishi, katta va kichik o'lchamlar bilan belgilangan nisbat va perspektiva o'zgarishlar munosabatlari, ko'rish burchagi birgalikda asar mazmunini ochib beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sa'nati ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zaruriy unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysunish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, sa'nat asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, "dog'", oraliq xarakter nusxa, imo-ishora bilan ifodalanadi. Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir.

Leonardo da Vinchi "Rangtasvir qonunlari" ilmiy asarida o'lcham qarama-qarshiligi haqida, katta-kichik, past-baland, yupqa-qalin, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozadi. Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratamiz.

1. Kompozitsiya qonunlari.
2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va sa'natda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elementni oraliqda galma-gal qaytarishidir.

Asar g'oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazi tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi. Uzoq kenglikni ochiq manzarada gorizantal holatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo'lib tuyuladi. Kompozitsiyani paralel, vertikal yo'nalishda bo'lishi tantanali ulug'vor, ko'tarinki ruh holatini anglatadi. Chiziq shtrix, rangli va tusli dog' (surtma) soya-yorug', rang, chiziqli, havo va rang perspektivalari kompozitsiyaning vositalaridir.

Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarni qalinligi orqali predmetlarni soya, yorug' joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga yordam beradi. Rang va tus kompozitsiya tuzishda muhim rol o'ynaydi. Asarda plastik hajm, chiziqli, havoyi rangli perspektivalarning roli katta.

Kompozitsiya kursining asosiy vazifasi talabalarda, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, sa'natni idrok etishni va tahlil qilishni, hayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy-pedagogik faoliyatga tadbiiq qilishdir.

Kompozitsiya amaliy hamda nazariy qismdan iborat. Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlarni, uy vazifalarini ongli ravshda bajarishni talab etadi. Amaliy qismda asosiy maqsad talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, hayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma-bosqich eskizni oxirigacha yetkazishdan iboratdir.

Kompozitsiya eskizining mazmun g'oyasini, maqsad va vazifalarini ongli ravshda idrok etish muhimdir. Har qanday sa'nat asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. Ijodiy jarayonda rassomning didi, layoqati kompozitsion madaniyati, bilim saviyasi namoyon bo'ladi. Kompozitsiya o'quv predmeti haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, sa'nat tarixi kabi mutaxassis fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Natuyurmort kompozitsiyasi, interer kompozitsiyasi, manzara kompozitsiyasi, portret kompozitsiyasi, maishiy janrdagi tematik kompozitsiya, dastgohli va kitob grafika kompozitsiyasi, plakat kompozitsiyasi mahobatli bezak sa'nati kompozitsiyasi kompozitsiya sa'natining asosiy qonun-qoidalariga binoan tuziladi. Hozirgi zamon sa'nati rivojlanishiga, rassomning ijodiy izlanishi yangi mazmunli g'oya, insonlarning ma'naviy-ma'rifiy talablarini qondirish bilan bog'liqdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi yechimi, murakkab ruhiy holatni topish rassomdan kundalik hayotidagi go'zallikni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki his-tuyg'ularini sezishni, to'g'ri, chuqur tasavvur etishni talab qiladi. Shuning uchun rassom o'qituvchilardan kompozitsiya fanining eng murakkab va muhim fan sifatida o'rganish talab etiladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Manzara janri tabiatdagi turli ko'rinishlarning tasviriy sa'natda aks ettirishidir. Tog', o'rmon, dengiz shahar va qishloq manzaralarining, obidalarning manzarada ko'rinishlari aniq bir mazmuni berib hayotiy ma'noni anglatadi va shu ko'rinishda maqsad mazmunga ega bo'lsa bunday asar-manzara janriga tegishlidir.

Manzara janrining mohir ustalari Klod Leron, Shishkin, Levitan, Karaxan, Tansiqboyev va boshqa mashhur rassomlarni bu borada misol keltirish mumkin. Manzarachi rassomning shakllanishida ham o'ziga xos sirlar bor. Buning uchun tabiatni sevish, uni kuzata bilish, ayniqsa, rang-lavhalar, ya'ni etyudlar ustida ishlay bilish talab qilinadi.

Bu borada O'zbekiston tabiatining sermazmun manzaralarini tasvirlagan Nikolay Karaxan ijodi diqqatga sazovor. Manzara - tasviriy sa'natning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita fon sifatida muhim rol o'ynaydi.

Qadimiy Xitoy sa'natida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar. Yevropada manzara janri tarixi XVI-XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'xshatib, haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Petrburg arxitektura yodgorliklari F.E.Alekseev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Manzara sa'nati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tiniq holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I.Levitaning "Oltin kuz", "Abadiy sokinlik", I.Shishkinning "O'rmon yiroqlari", V.Meshkovning "Ural haqida o'ylar" asarlarini keltirish mumkin.

Tasviriy sa'natda manzara asarlari insonda tabiatga munosabat, muhabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

V.Vasnetsovning "Alyonushka" asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zallikni, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarni K.Yuon, G.Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoyish etadilar. 50-70-yillarda O'zbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U.Tansiqboyev "Issiq ko'l", "Nanay yo'li", "Sijjakda bahor", P.Temurov Samarqand arxitektura manzaralari turkumini yaratdilar.

Hozirgi vaqtda A.Nuritdinov, O.Qozoqov, A.Muminov, A.Mirsoatov kabi ko'plab rassomlar mustaqil O'zbekistonning go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: shahar (arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoat, qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir. Bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi. Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq,

arxitektura, transport vositalari, odamlar oromgoh bog'lar hamda yerosti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya toshi, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'priklar, metro qurilishi, texnika qurilishi vositalari bilan bog'langan. Lirik manzarada tabiatni “Erta tong”, “Bahor” kabi mavzudagi tabiatning nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi, insonga olam-olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz.

Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilar): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizig'i, fazoviy masofa, format, perspektiva, ritm, kolarit, yorug', refleksi, kompozitsiya yaratish uchun qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizig'i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin.

Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda quyoshni, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatining xarakterli xususiyatlarini sinchiklab kuzatish lozim. Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo, yerni tekislikda nisbatlarini belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar masshtabini topish dardkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritini aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyasini yakuniy nusxasini amalga bajarish kerak. Uni qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

#### Adabiyotlar

1. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. -T.: “O'zbekiston”, 2006.
2. Abdiraхmopov G'.M. Kompozitsiya asoslari. –Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008.
3. Шомуродов О. Н., Аvezов Ш. Н. Компьютерные технологии обучения //Вестник науки и образования.– 2020. – №. 21-2 (99).
4. Batirov J. S., Avezov S. N. THE CURRENT IMPORTANCE OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 4. – S. 293-296.
5. Abdullaev S. S., Rafieva N. A. Iskusstva Drevney Rusi i Sredney Azii v duxovnom dialoge (istoricheskiy ekskurs) //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 21-2 (99).
6. Bafaevich, Azimov Barot, and Azimova Mukhaye Baratovna. "The Importance of Teaching Methods of Fine and Applied Arts." *Middle European Scientific Bulletin* 9 (2021).
7. Тухсанова, Вилюг Ражабовна, анд Шодижон Шокирович Бакаев. “ИКУССТВО ЗОЛОТОГО ШИТЯ ГОРОДА БУХАРЫ.” *Academy* 11 (62) (2020).
8. Mukhamedovich A. M. Bukhara wood carving //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 5. – S. 343-346
9. Аминов, Акмал Шавкатович, Аваз Рузибоевич Шукуров и Дилфуза Исломова Мамурова. “Проблемы разработки важнейшего дидактического инструмента для активизации учебного процесса студентов в учебном процессе”. *Международный журнал прогрессивных наук и технологий* 25.1 (2021): 156-159. Razzoqovna O. G. THE PROBLEM OF DEVELOPING STUDENTS' PERCEPTIONS OF VISUAL ARTS IN UZBEKISTAN //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
10. Islamovna M.F., Umedullaevna S.S. SHADOW FORMATION IN PERSPECTIVE //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 4. – S. 5-5.
11. Shomurodov, Oybek Norkulovich. “History of Teaching Fine Arts in Uzbekistan.” *Middle European Scientific Bulletin* 9 (2021).